

Fanlar akademiyasi Tarix instituti va Turkiyaning Pamukqal'a universiteti o'rtasida kelishuv bitimi imzolandi

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktori Azamat Ziyov va Turkiyaning Pamukqal'a universiteti rektori Ahmed Qutlug'xon o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.



Uchrashuv davomida ikki tomon o'rtasida ilmiy aloqalarni yo'lga qo'yish va kuchaytirish, qo'shma ilmiy loyihalar tayyorlash va amalga oshirish, o'zbek-turk xalqlari tarixini o'rganish masalalari, birkalikda ilmiy yig'inlar tashkil etish muhokama qilindi. Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimizda tarix fani oldida turgan vazifalardan kelib chiqib, ularning yechimlaridan biri sifatida kadrlar tayyorlash masalasi ekanligiga urg'u berildi. Bunda ikki tomonlama mutaxassislar va yoshlar almashinuvi dasturini amalga oshirish dolzarb ekanligi ta'kidlandi.

Bundan tashqari, yosh tarixchi olimlar o'qishlari muddati va mavzular ko'lamini kengaytirish, Institut yoshlarining til bilish darajasini yaxshilash maqsadida turkiyalik mutaxassislarni jalb etishga kelishildi.

Uchrashuv so'nggida Tarix instituti va Turkiyaning Pamukqal'a universiteti o'rtasida kelishuv bitimi imzolandi.